

## Talaba-yoshlar haydovchilik kursidan imtihan topshirdilar

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti 2-bosqich talabalari "Agroinjenerlik" amaliyotini o'tashdi. O'quv amaliyoti Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumanida joylashgan TIQXMMning amaliyot maydonlarida tashkil etilgan. O'quv amaliyoti jarayonida talabalarimiz qishloq xo'jaligi texnikalari bilan yaqindan tanishib, o'z tajriba va ko'nikmalarini bevosita amaliy mashg'ulotlar yordamida oshirishdi.. Fakultetimizdan jami 250 nafarga yaqin talabalar o'quv amaliyotiga jalb qilingan edi. Amaliyot davrida talaba-yoshlar qishloq xo'jalik mashinalarini haydash uchun imtihan topshirdilar. Talaba-yoshlar traktor va kombaynlarni amalda sinab ko'rdilar. Unda fakultetning barcha talaba-yoshlari muvaffaqiyatli topshirdilar. Yakunda ijobiy ko'rsatkich olgan talaba-yoshlarga haydovchilik guvohnomalari topshirildi.

